

Ona tili va adabiyot fanidan test topshiriqlarini bajarish bo'yicha abituriyentlar uchun ayrim tavsiyalar

Oliy o'quv yurtiga kirish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan abituriyentlarga ona tili va adabiyot fanidan ayrim test topshiriqlarining yechilishiga oid izohlar beramiz:

1 - test topshirig'i

Qaysi gapdagi sifatlarning barchasi ma'nosiga ko'ra bir guruhga mansubdir?

- A) Baqqol amaki o'zi pakana-yu, lekin yuzi katta, peshonasi keng, iyagi kalta, tabiatan kamgap odam.
- B) Uning chaqnoq ko'zlari, siyrak qoshi, o'ychan turishi katta bardoshini, sadoqatini aks ettirib turardi.
- C) Hovlilardan ko'tarilgan tutunlar ko'kimtir, mayin mavj bilan tiniq, sovuq havoda suzadi.
- D) Yalqov kishi – qo'rqqoq va g'ayratsiz bo'ladi; g'ayratsiz, qo'rqqoq kishi – maqtanchoq bo'ladi.

Ushbu 1-murakkablik darajasidagi test topshirig'i Kogifikatordagi 5.1(Morfologiya. Mustaqil so'z turkumlari (sifat) va ularning uslubiy xususiyatlari) bo'limga oid bo'lib, Tafsilotdagi test topshiriqlari rejasi jadvaliga asosan 3.1 (leksikjologiya) bo'limga oid mavzu bilan bog'liq ravishda tuzilgan.

Test variantlaridagi gaplarda ishtirok etgan sifatlarni ma'nosiga ko'ra tahlil qilamiz:

- A-variantda hajm-o'lchov va xususiyat bildiruvchi sifatlar qatnashgan.
- B-variantda xususiyat va hajm-o'lchov bildiruvchi sifatlar qatnashgan.
- C-variantda rang-tus va xususiyat bildiruvchi sifatlar qatnashgan.
- D-variantda qatnashgan barcha sifatlar xususiyat bildiruvchi sifatlar sanaladi.

To'g'ri javob: D) Yalqov kishi–qo'rqqoq va g'ayratsiz bo'ladi; g'ayratsiz, qo'rqqoq kishi – maqtanchoq bo'ladi.

Manba: N.Mahmudov va b., Ona tili, 6-sinf darsligi, 2017-yil, 152-156-betlar.

2 - test topshirig'i

Qaysi gapda so'z yasovchi qo'shimcha(lar) fonetik o'zgarish asosida yozilgan?

- A) Tan og'rig'ini unutish mumkin, ammo qalb og'rig'ini unutish juda qiyin.
- B) – Imli odam ming yashar, ilmsiz esa bir yashar, – dedi bolalarga qarab.
- C) Bog'da sayroqi qushlarning ovozi eshitilardi.
- D) Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r – mingni.

Ushbu 2-murakkablik darajasidagi test topshirig'i Kogifikatordagi 1.1. (Fonetika) bo'limga oid bo'lib, Tafsilotdagi test topshiriqlari rejasi jadvaliga

asosan 4.1 (Morfemika (soʻz tarkibi). Soʻz yasalishi) boʻlimga oid mavzu bilan bogʻliq ravishda tuzilgan.

Ushbu testda fonetik oʻzgarish asosida yozilgan soʻz yasovchi qoʻshimchalar A variantda berilgan boʻlib, soʻz yasovchi qoʻshimcha vazifasida kelgan **-q** tovushi egalik qoʻshimchasi taʼsirida **-gʻ** tovushiga almashgan:

ogʻri + q = ogʻriq ogʻriq + i = ogʻrigʻi

Qolgan variantlarda esa bunday holat kuzatilmaydi.

Toʻgʻri javob: A) Tan ogʻrigʻini unutish mumkin, ammo qalb ogʻrigʻini unutish juda qiyin.

Manba: S.Nurmonov va b., Hozirgi oʻzbek adabiy tili, Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun darslik, 1-kitob, 2010-yil, 66-67-betlar, 85-bet, 119-120-betlar

3 - test topshirigʻi

Bosh gap qismida uyushgan boʻlaklar ishtirok etgan ergash gapli qoʻshma gapni toping.

- A) Shu sayrdan, tabiatning goʻzalligidan nashʼa va safo tuygan bu aqlli jonivorlarning tiniq koʻzlarida xushnudlik ifodasini koʻraman.
- B) Bahor kelsa, boshlanar bogʻda bulbul xonishi, Saʼva, qumri nagʻmasi, suralay tovlanishi.
- C) Kim chaqqon va tez harakat qilsa, yutuq oʻshaniki boʻladi.
- D) Quyosh bosh koʻtarib chiqadi-yu, uxlab yotgan dov-daraxtlar, giyohlar borliqni uygʻotib yuboradi.

Ushbu 2-murakkablik darajasidagi test topshirigʻi Kogifikatoridagi 6.3 boʻlim (Qoʻshma gap sintaksisi)ga oid boʻlib, Tafsilotdagi test topshiriqlari rejasi jadvaliga asosan shu boʻlimdagi uyushiq boʻlaklar mavzusi (6.2) bilan bogʻliq ravishda tuzilgan.

Berilgan test savoliga toʻgʻri yechim topish uchun, eng avvalo, ergash gapli qoʻshma gaplar ajratib olinadi. Eʼtibor bergan boʻlsangiz, barcha variantlardagi gaplarda ham uyushiq boʻlaklar qatnashgan, lekin A javobdagi gap – sodda gap, D javobdagi gap esa ergash gapli qoʻshma gap emas, bogʻlangan qoʻshma gap sanaladi. Demak, asosiy diqqatni B va C variantlardagi gaplarga qaratish lozim boʻladi. Keyingi qadam: B va C variantlarda berilgan gaplardagi bosh va ergash gaplarni aniqlab olish zarur. Har ikkala gapda ham avval ergash, keyin bosh gaplar kelgan. B javobdagi ergash gapli qoʻshma gapning bosh gap qismida egalar uyushib kelgan. C javobdagi ergash gapli qoʻshma gapning ergash gap qismida esa uyushiq hollar qatnashgan.

Toʻgʻri javob: B)Bahor kelsa, boshlanar bogʻda bulbul xonishi,
Saʼva, qumri nagʻmasi, suralay tovlanishi.

Manba: N.Mahmudov va b., Ona tili, 9-sinf darsligi, 2014-yil, 36-37, 48-49-betlar; M.Qodirov va b., Ona tili, 8-sinf darsligi, 2014-yil, 109-bet

4 - test topshirig'i

Mustaqil va nomustaqil vositali to'ldiruvchi qatnashgan gapni aniqlang.

- A) Nafsing bilan maslahat qilishdan avval hamyoning bilan kengash.
- B) Yaxshiga yaxshi nom fe'lidan yetar.
- C) Bu qarorni amalga oshirishdagi birinchi qadam – o'qish.
- D) Biz, avvalo, poyonsiz dalalaringni, olamdagi bor go'zallikni o'z bag'rida yashirib yotgan yam-yashil bog'laringni, anhorlarda sharaqlab oqqan suvlaringni o'ylaymiz.

Ushbu 3-murakkablik darajasidagi test topshirig'i Kogifikatordagi 6.2 (Gap va gap bo'laklari) bo'limga oid bo'lib, Tafsilotdagi test topshiriqlari rejasi jadvaliga asosan shu bo'limga oid "Gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi" mavzusi (6.1) bilan bog'liq ravishda tuzilgan.

- A-javobda nomustaqil va mustaqil vositali to'ldiruvchilar qatnashgan.
- B-variantda nomustaqil vositali to'ldiruvchi qatnashmagan.
- C-variantda nomustaqil vositasiz to'ldiruvchi qatnashgan.
- D-variantda mustaqil va nomustaqil vositasiz to'ldiruvchilar qatnashgan.

To'g'ri javob: A) Nafsing bilan maslahat qilishdan avval hamyoning bilan kengash.

Manba: S.Nurmonov va b., Hozirgi o'zbek adabiy tili, Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun darslik, 3-kitob, 2010-yil, 55-56-betlar

Adabiyot fani bo'yicha ham test savollarini yechish uchun ayrim tavsiyalarni berib o'tamiz. Ma'lumki adabiyot fani bo'yicha test savollarini to'g'ri bajarish abituriyentning o'quv darsliklaridagi mavzularni, ijodkorlar hayoti va ijodini qay darajada o'qib - o'rgangani bilan bog'liq. Masalan, adabiyot nazariyasi bo'yicha tuziladigan test savollari adabiy turlar va janrlar, she'riy san'atlar, she'r ilmiga doir bilimlarni qay darajada bilishga qaratilgan bo'lib, ushbu bo'limdan tuziladigan savollar o'quv darsliklarida berilgan ma'lumotlar asosida tuziladi.

5 - test topshirig'i

Chu sabrim tirnog'ida har kuni yuz ko'hi g'am qozdim,

Meni oldimdadur Farhod – ojiz, Ko'hkan nozuk.

Ushbu baytda qo'llangan she'riy san'atlarni aniqlang.

- A) mubolag'a, talmeh
- B) talmeh, tarse'
- C) tarse, tajnis

D) tardi aks, mubolag‘a

Ushbu test topshirig‘i Kodifikatordagi 15.1 bo‘lim (Adabiyot nazariyasi) ga oid bo‘lib, Tafsilotdagi test topshiriqlari rejasi jadvaliga asosan 2-murakkablik darajasida tuzilgan. To‘g‘ri javobni topish uchun abituriyent she‘riy san‘atlarning farqiga borishi kerak bo‘ladi. Masalan, baytda asar qahramoni nomi keltirilgan bo‘lib, bu holat talmeh san‘atini yuzaga keltiradi. Oshiqning har kuni yuzta g‘am tog‘ini (*ko‘hi g‘am*) qazishi esa mubolag‘a san‘atini hosil qilgan. **To‘g‘ri javob A variantda berilgan bo‘lib**, boshqa variantlarda keltirilgan tarse (ost-ust joylashgan juftliklarning o‘zaro qofiyadosh bo‘lib kelishi), tardi aks (ketma-ket kelgan so‘zlarning o‘rni almashgan holda takrorlanishi), tajinis (o‘zaro jinsdosh, yani shakldosh so‘zlarning qo‘llanishi) san‘atlari esa qo‘llanmagan. Demak, test javobini topish uchun o‘quvchi ushbu she‘riy san‘atlar haqida puxta bilimga ega bo‘lishi lozim.

To‘g‘ri javob: A) mubolag‘a, talmeh

Manba: Q.Yo‘ldoshev va b., Adabiyot, 9-sinf darsligi, I qism, 120, 136-139-betlar; S.Olimov va b., 8-sinf darsligi, I qism, 78-bet

6 - test topshirig‘i

Qaysi javobda Vatanimiz tarixidagi buyuk allomalar: Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ulug‘beklar hayoti, ulug‘vor ishlari haqida romanlar yozgan adib nomi berilgan?

- A) Pirimqul Qodirov
- B) Shuhrat
- C) Odil Yoqubov
- D) Asqad Muxtor

Ushbu test topshirig‘i Kodifikatordagi 13.1 bo‘lim (XX asr adabiyoti. Istiqlol davri adabiyoti)ga oid bo‘lib, Tafsilotdagi test topshiriqlari rejasi jadvaliga asosan 2-murakkablik darajasida tuzilgan. Ushbu test savolining javobini topishda abituriyentlar javob variantlaridagi adiblarning hayot va ijod yo‘li haqida berilgan mavzularni yodga olishlari maqsadga muvofiqdir. Odil Yoqubovning ijodiy faoliyatini o‘rganish jarayonida ushbu ma‘lumot berilganligining guvohi bo‘lamiz.

To‘g‘ri javob: C) Odil Yoqubov

Manba: S.Ahmedov va b., Adabiyot, 6-sinf darsligi, I qism, 2017-yil, 119-bet